

TALABALARDA KVALIMETRIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TIZIMI

F.Nuradinov

Fakultetlararo pedagogika kafedrası o'qıtuvchısı

Annotation. This article describes the pedagogical system, the system for the development of qualimetric competence, its main components, the composition of each module and their content and essence in describing the effective functioning and development of the system.

Key words: pedagogical system, theory of qualimetric measurements of competence, mathematical modeling, motivational, semantic-technological, evaluation, correction block.

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik tizim, kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirish tizimi uning asosiy komponentlari, tizim samarali ishlashi hamda rivojlanishining amalga oshirilishini tavsiflashda har bir modulning tarkibi va ularning mazmuni hamda mohiyati ochib berilgan.

Аннотация. В данной статье описывается педагогическая система, система развития квалиметрической компетентности, ее основные компоненты, состав каждого модуля и их содержание и сущность в описании эффективного функционирования и развития системы.

Kalit so'zlar: pedagogik tizim, kvalimetrik kompetentlik ўlchovlar nazariyasi, matematik modellash, motivatsion, mazmunli-tehnologik, baholovchi, korreksion blok.

Ключевые слова: педагогическая система, теория квалиметрических измерений компетентности, математическое моделирование, мотивационный, семантико-технологический, оценочный, коррекционный блок.

Kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirishda matematik komponent (o'lvovlar nazariyasi, matematik statistika, matematik modellashtirish) va axborot texnologiyalari sohasidagi tayyorgarlik ahamiyatli o'rin egallaganligi sababli biz kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy qismini «Pedagogik kvalimetriya» fani doirasida amalga oshirishga qaror qildik. Tizimning qolgan komponentlari mazkur fanga kiritiladi va unga qo'shimcha amaliy yo'naltirilgan xususiyat va kasbiy-pedagogik yo'nalganlik bag'ishlaydi. Olingan bilim, ko'nikma, malakalar va tajribani umumlashtirish uchun biz tomonimizdan «Pedagogik kvalimetriya» mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot to'garak ishi tashkil etildi.

Bizning tizim samarali ishlashi hamda rivojlanishining amalga oshirilishini tavsiflashda har bir modulning (komponent) tarkibidan kelib chiqamiz: maqsadli, motivatsion, mazmunli-tehnologik, baholovchi, korreksion bloklar.

Kvalimetrik kompetentlik barcha komponentlarining *maqsadli va motivatsion bloklari* «Pedagogika» fanining boshlanishida amalga oshiriladi. Tizimning samarali ishlashining sharoitlari birinchi mashg'ulotlardan va butun fan davomida joriy etildi.

Rivojlantirishning maqsadlarini belgilash va har bir komponenti bo'yicha dastlabki motivatsion tadbirlar birinchi ma'ruza va amaliy mashg'ulotda amalga oshirildi. Ma'ruzada pedagogika va boshqa fanlarning o'zaro aloqadorligi, uning amaliy ahamiyati, jumladan, pedagogik amaliyot uchun ham ahamiyati ko'rsatildi.

Nazariy materialni keyingi bayon etishda biz o'lvovlar nazariyasi, matematik statistika va modellashtirish, pedagogik kvalimetriya va ta'lim sifatini boshqarish nazariyasining asosiy tushunchalarini kiritib bordik. Birinchi amaliy mashg'ulotda kvalimetrik kompetentlikning maqsadli ustanovkalari, baholashning reyting tizimining vazifalarini tushuntirish, o'quvchilar yutuqlarini baholashning zamonaviy muammolarining muhokamasi, muammoli masalalarni aniqlash va bo'lajak o'quv loyihalari uchun

mavzularni tanlash o'tkazildi, universitetning axborot-kutubxona bazasi bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar berildi.

Bizning tizim samarali ishlashi va rivojlanishining sharoitlari blokning vazifalarini inobatga olgan holda amalga oshirildi. Masalan, baholashning reyting tizimi talabalarning kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga jalb etish va alohida modullarini o'rganish motivatsiyasi uchun qo'shimcha vosita sifatida ham xizmat qildi. SHuningdek, talabalarning reyting tizimi bo'yicha ko'rsatmalari har bir modulni o'rganish maqsadlarini tushuntirish va hujjatlarda qayd etishga imkon berdi. O'quv loyihalaridan foydalanish ijodiy xususiyat bag'ishladi va buning hisobiga talabalarda o'qishga qiziqishni uyg'otishning qo'shimcha vositasiga aylandi. Har bir o'quv loyahasida maqsad aniq qayd etiladi, bu esa ta'lim oluvchilarning e'tiborlarini modullarning maqsadli vazifalariga e'tiborlarini kuchaytirishga imkon beradi.

Tashqi axborot-ta'lim muhitining imkoniyatlaridan foydalanish butun kvalimetrik kompetentlikning amaliy yo'naltirilganlikni kuchaytirish tufayli oliy ta'lim muassasalari talabalarining motivatsiyalarining samarali vositasi bo'ldi. Tashqi muhitda turli manbalar bilan ishlashda keraksiz yoki ortiq ma'lumotlarni izlashga ko'p vaqt va vositalarni sarflamaslik uchun talabalarga o'qitishning maqsadlarini doim esda tutishlari zarur bo'ldi. SHunday qilib, kvalimetrik kompetentlikning barcha modullarning maqsadli va motivatsion bloklari «Matematika va informatika» fanlari doirasida samarali rivojlanishi va amal qilishi sharoitlari asosida amalga oshirildi.

Modullarning *mazmunli-texnologik bloki* talabalarning kvalimetriya muammolari bo'yicha o'quv loyihalarini bajarishlari davomida amalga oshirildi.

Qo'shimcha ravishda to'garak ishlari doirasida «Matematika va informatika» fani dasturiga kirmaydigan masalalar, jumladan baholashning psixologik-pedagogik muammolarining nazariy sharhi va sifatni baholashga taalluqli bo'lmagan ta'lim sifatini boshqarish nazariyasining alohida jihatlari ko'rib chiqildi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining loyihalar ustidagi barcha ishlari o'qituvchi tomonidan doimiy nazorat va baholashning reyting tizimi yordamida o'z-o'zini baholash bilan birga olib borildi.

Talabalar axborot manbalari rovida nafaqat ma'ruza materialidan, balki tashqi ta'lim muhitining imkoniyatlaridan foydalandilar: SamDU va viloyat ilmiy kutubxonasi resurslari, Internet resurslari, maktab o'qituvchilarining etakchi tajribalari, shuningdek, mamlakat maktablari va OTMLarining rasmiy saytlari va elektron pochталari orqali ularning pedagogik tajribalari. Talabalarning o'quv loyihalarini bajarishlari orqali kvalimetrik kompetentlikning mazmunli-texnologik bloklarini amalga oshirishning xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Birinchi amaliy mashg'ulotda oliy ta'lim muassasalari talabalar tomonidan butun o'quv loyhasini qamrab oluvchi savol qo'yildi. Asosiy muammo bir necha ilmiy va o'quv fanlarining predmetli sohasida bo'lishi, pedagogik faoliyatning amaliy va etik jihatlari taalluqli bo'lishi kerak. Muammo talabalarni befarq qoldirmasligi, balki ularning shaxsiy qiziqishlari sohasida bo'lishi kerak. SHuning uchun biz tomonimizdan quyidagi asosiy savol berildi: «Ta'limdagi raqamlar ortida nima yotadi?» yoki «Raqam pedagog va o'quvchi uchun nimani beradi?». Bunday savolning qo'yilishi munozarani pedagogikaning rasmiylashtirish muammosiga va o'quvchilarni maktabda baholashning psixologik-pedagogik jihatlari hamda jamiyatning axborotlashtirilishi, shuningdek, ta'limni boshqarish muammolari va hokozolarga olib chiqishga imkon beradi. So'ngra muhokama vaqtida muammoli savollarning yuzaga kelishi ko'zda tutiladi va natijada talabalarning loyihalari ularning echilishiga yo'naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: Дис. ... док. пед. наук. – М., 1998. – 357 с.
2. Ардеев А.Х. Образовательная информационная среда как средство повышения эффективности обучения в университете: Дис. ... канд. пед. наук. – Ставрополь, 2004. – 165 с.
3. Артебякина О.В. Формирование математической культуры у студентов педагогических вузов: Дис. ... канд. пед. наук. – Челябинск, 1999. – 162 с.
4. Васильева Н.А. Квалиметрические основы рейтинговой системы контроля знаний студентов: Дис. ... канд. пед. наук. – Ижевск, 1999. – С. 151. Turg'unov S.T, Maqsudova L.A "Pedagogik

